

## PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASINING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISHI

*Parpiyeva Dildora Foziljonovna*
*Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani 45-umumta'lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali psixologiyaning bunyodga kelishi va taraqqiyoti jarayonida «psixik», «ijtimoiy» va «biologik» tushunchalar o'rtaqidagi mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan aloqalar ko'rib chiqilgan. Psixik taraqqiyot to'laligicha ham biologik va ijtimoiydan mustaqil bo'lgan muayyan jarayon sifatida, ham faqat biologik yoki faqat ijtimoiy rivojlanishning hosilasi sifatida, yoki ularning intividiga ko'rsatadigan parallel ta'sirining natijasi sifatida tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** Individ, endopsixika, ekzopsisixika, e'tiqodlar, ijtimoiy obraz, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot.

### KIRISH.

Individ - biologik turning umumiylirsiy xossalari tashuvchi biologik organizm (har bir odam individ bo'lib tug'iladi). Shaxs tushunchasi «yuz», «soxta qiyofa» so'zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida «soxta qiyofa» so'zi «rol», ya'ni, odam boshqalar bilan muloqotda bo'lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma'nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha "persone" so'zi ham shu ma'noni anglatadi (Per sonare – niqob ortidan so'zlashish). Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida aktyor sahnaga u yoki bu – yovuz, lagabardor, payg'ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqardi. Niqobning bo'yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning ahloqiy belgilariga ishorat edi.

Hozirgi kundapsixologiya shaxsni insonning jamiyatdagi hayotida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik hosila sifatida tushuntiradi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishganida va bu munosabatlar uning shaxsini shakllantiruvchi hal qiluvchi omilga aylanganida, u yangi sifatlarga ega bo'ladi.

Aniqlanishicha, ayollarda, erkaklardan farqli o'laroq, yosh o'tishi bilan nevroz holatlari kamayadi. Ikki jins vakillarida samimiylilik bir oz kamayadi. Olimlarning fikriga ko'ra, 20 – 30 yoshlarda murakkab vazifalarni bajarishda va tashkilotlar tuzishda ko'mak beradigan vijdoniylilikning kuchayishi kuzatiladi. Murosaga kelishga moyillik, aksincha, ko'pchilik holatlarda 30 yoshdan so'ng yorqin namoyon bo'ladi.

Shaxs asosini uning tuzilishi tashkil etadi, bu esa shaxsning yaxlit hosila sifatida har taraflama nisbiy barqaror aloqa va o'zaro ta'sirga ega bo'lishidan iborat.

Psixologlar shaxs tuzilishida turli tarkibiy qismlarni ajratadilar. S.L. Rubinshteyn temperament, xarakter, layoqatlarda; bilimlar, malakalar va ko'nikmalarda; yo'nalganlikda namoyon bo'ladigan individual-tipologik xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. A.G.Kovalev yo'nalganlik, xarakter, imkoniyatlar va mashqlar tizimini ajratadi. M.I.Enikeev temperament, yo'nalganlik, layoqatlar va xarakterni sanab o'tadi. Mashhur psixolog K.K.Aflatunov yo'nalganlik tarkibini, ijtimoiy tajriba tarkibini, psixologik tarkibni va biologik asoslangan tarkibni ajratib ko'rsatadi. Shunday bo'lsada, shaxs tuzilishida tarkibiy qismlarni ajratishdagi tafovutlarga qaramay, mualliflar o'z yondoshuvlarida etakchi tarkibiy qism sifatida yo'nalganlikni alohida ajratib ko'rsatadilar. Bu tushuncha turlicha, masalan, «o'sish sur'ati tendensiyasi (S.L.Rubinshteyn), «ma'no kasb etuvchi motiv» (A.N.Leontev), «dominantlik munosabati» (V.N.Myasiščev), «asosiy hayotiy yo'nalganlik» (B.G.Ananov), «inson mohiyatli kuchlarini dinamik tarzda tashkil etish» (A.S.Prangishvili) sifatida talqin etiladi.

Bizlar nima uchun odam harakatlari faollashganining sababini aniqlashda ehtiyojlar mohiyatining tahlilini o'tkazamiz, lekin bu faollikning oqibatlarini bilish uchun uning yo'nalganligi nima bilan belgilanishini tahlil qilishimiz lozim. *Yo'nalganlik* deb, shaxs faoliyatini yo'naltiruvchi va xususiy vaziyatlardan nisbatan mustaqil bo'lган barqaror motivlar yig'indisiga aytiladi. Masalan, o'quvchi hulq-atvori yaxlitligicha ko'rib chiqilganida, uning psixologiyasi tahlilida barqaror motivlarni aniqlash zarur. Mana shu holatdagina o'smirning harakati tasodifiyligi yoki qonuniyatga asoslanganligiga baho berish, uning takrorlanish imkoniyatlarini oldindan ko'ra olish, shaxs sifatlarining ba'zilarini bartaraf etish, boshqalarining rivojlanishini esa rag'batlantirish mumkin. Motivlar u yoki bu darajada angangan yoki umuman anglanmagan bo'lishi mumkin. SHaxs yo'nalganligida asosiy o'rinni angangan motivlar egallaydi.

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va asosiy vositalarni jadal yangilash zarurati sharoitida lizing xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish shakli sifatida alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyoda oila yangi shakllarga ega va bilan taqqoslaganda sezilarli darajada o'zgartirilgan oldingi avlodlar davomida qabul qilingan oilaviy munosabatlarning an'anaviy shakllari. Tadqiqotlarning birinchi davri qadimgi allomalarning ishlari bilan boshlangan bo'lib, XIX asrning boshlarigacha davom etdi. Falsafiy-adabiyot davrida shaxs psixologiyasining asosiy muammolari insonning ahloqiy va ijtimoiy tabiatini haqidagi masalalardan iborat bo'ldi. SHaxs haqidagi birinchi ta'riflar yetarli darajada kengroq edi. Ular o'z ichiga insonda mavjud narsalarni va shaxsan o'ziniki bo'lган: uning biologiyasi, psixologiyasi, mol-mulki, hulq-atvori, madaniyati va h.k.larni jamlagan edi.

XIX asrning birinchi o‘n yilliklarida shaxs psixologiyasi muammolari bilan faylasuflar bilan bir qatorda shifokor-psixiatrlar ham shug‘ullana boshladi. Ular birinchilar qatorida klinika sharoitlarida bemor shaxsi ustidan muntazam ravishda kuzatuvlar olib bordilar, uning hulq-atvorini yaxshiroq tushunish maqsadida bemor hayoti tarixini o‘rgandilar. Psixiatrlarning diqqat markazida bemor odamda, odatda, aniqlanadigan shaxs xususiyatlari bo‘ldi. Keyinchalik ular tomonidan aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlar sog‘lom odamlarning deyarli barchasida mavjudligi, lekin ularda kuchsiz holatda, bemorlarda esa o‘ta kuchli tarzda ifodalanishi aniqlandi. Bu, masalan, xavotirlik va rigidlik, qo‘zg‘aluvchanlik holatlariga tegishlidir.

Shaxsni aniqlash qirralari shifokor-psixiatrlar tomonidan shunday atamalar bilan belgilangan ediki, ular yordamida ham normal, ham patologik, ham shaxsga ta’rif berish mumkin edi. Shunga qaramasdan, ushbu yondashuv psixologiya nuqtai nazaridan mukammal deb hisoblanmaydi. Bunday yondashuvlar normal shaxsni yaxlit holda ta’riflash uchun juda qisqa va yetarli emas. Bunday aniqlash turiga turli sharoitlarda aniq ifodalanuvchi, doimo ijobiylar, «mutanosib» bo‘lgan shaxs xususiyatlari kiritilmagan edi. Bularga misol qilib, layoqatlar, ahloqiy sifatlar va boshqa shaxs xususiyatlarini keltirish mumkin.

Shaxs haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish usuliga ko‘ra barcha nazariyalarni eksperimental va noeksperimentallarga bo‘lish mumkin. Eksperimental shaxs nazariyalariga tajriba o‘tkazish yo‘li bilan to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan nazariyalar, noeksperimentallarga esa – mualliflari tajribaga murojaat qilmasdan turib, hayotiy taassurotlarga, kuzatishlar va tajribaga tayangan holda nazariy bilimlarni umumlashtiradigan nazariyalar kiradi.

Navbatdagi nazariyalarni tasniflashga asos bo‘lib, xizmat qiladigan nuqtai nazar mualliflarning shaxsni tuzilishga ega bo‘lgan yoki dinamik hosila sifatida tasvirlovchi qarashdir. Tuzilishga ega bo‘lgan nazariyalar qatoriga tushunchalar tizimi yordamida tasvirlanuvchi shaxs tuzilishini aniqlash asosiy muammo bo‘lib hisoblanadigan nazariyalar kiritiladi. Dinamik nazariyalar deb, asosiy mavzusi shaxs taraqqiyotida qayta tuzish, o‘zgartirish, ya’ni, uning dinamikasiga taalluqli bo‘lgan nazariyalarga aytildi. Shuningdek, yosh va pedagogik psixologiyada yuzaga kelgan bir qator shaxs nazariyalarini mavjud. Bunday nazariyalar shaxs taraqqiyotining inson tug‘ilganidan boshlab maktabni bitirishigacha bo‘lgan, chegaralangan yosh davrini ko‘rib chiqishga asoslangan. Bundan tashqari, mualliflari o‘z oldilariga shaxs taraqqiyotini insonning butun umri davomida kuzatish vazifasini quygan nazariyalar ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, shaxs nazariyalarini tasniflash uchun asos bo‘ladigan yana bir holat, bu nazariyalardagi shaxsning ichki xossalari, qirralari va sifatlari yoki uning tashqi ifodalanishi, masalan, hulq-atvori va harakatlariga qaratilgan e’tibordir. Shu asosda qirralar nazariyalarini ajratish mumkin. Nazariyalar ushbu guruhining

holatlarga ko‘ra, barcha odamlar bir-biridan alohida, mustaqil qirralarning rivojlanganligining to‘plami va darajasi bilan farqlanadi, shaxs haqidagi ma’lumotlarni esa, test yoki shaxs qirralarini aniqlash va tasvirlashning boshqa usuli yordamida, masalan, ma’lum insonni kuzatgan turli odamlarning hayotiy kuzatishlarini umumlashtirish asosida olish mumkin. Shaxs qirralariga baho berishning ikkinchi usuli barcha odamlarni tipologik guruhlarga birlashtirishdan iborat. Bunda bir xil tipologik guruhga tegishli bo‘lgan odamlar yaqin psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladilar va ular o‘zlarining hulq-atvori bilan birbirlariga juda o‘xshash bo‘ladilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Madumarov Talatbek Tolibjonovich, & Gulomjonov Odiljon Rahimjon o’g’li.
2. (2021). PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF A LEASING MECHANISM IN PUBLIC - PRIVATE PARTNERSHIP. International Engineering
3. Journal For Research & Development, 6(SP),  
<https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7MXR3>
4. Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
5. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
6. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
7. Дружинина В. “Психология”. Учебник. “Питер”, 2003.
8. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002.